

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

LINGVISTIKA

2024 Vol. 2 (1)

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir:	Hamidulla Dadaboyev
Bosh muharrir o'rinbosari:	Zulxumor Xolmanova
Mas'ul kotib:	Dilafroz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Baxronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Manzura Shamsiyeva, Zilola Shukurova, Gavhar Komilova, Kamola Rixsiyeva, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Mushtariy Xolmurodova, Nodir Jo'raqo'ziyev.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"Lingvistika" Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. "Lingvistika" seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

"Lingvistika" seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:	Hamidulla Dadaboev
Deputy Editor in Chief:	Zulkhumor Kholmanova
Executive secretary:	Dilafruz Muhammadiyeva

Editorial Committee

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbayev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Bakhronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Manzura Shamsiyeva, Zilola Shukurova, Gavhar Komilova, Kamola Rikhsiyeva, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Mushtariy Kholmuradova, Nadir Jorakoziyev.

Journal information

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors' ideas may differ from those of the editors'.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Mundarija

Lingvistika

Shuhrat Hayitov

Bobur asarlarining filologik tadqiqi.....6

Kamola Rixsiyeva

Qa= asosli lingvistik birliklarning semantik to'r asosidagi tahlili19

O'razova Iqbol

Eski o'zbek tilidagi "holat" semali frazemalar tahlili (XIV asrning II yarmi manbalari asosida)28

Mamarajabova Iroda

Eski o'zbek turkiy tildagi vaqt konseptini ifodalovchi leksemalar taraqqiyoti42

Ma'suma Mo'minova

Suv komponentli frazemalarda milliy-madaniy belgilar ifodasi57

Israilova Saodat Turapovna, Dilnoza Jumanova

Diskurs va uning ilmiy talqini67

Zahro Abruyeva

Ijtimoiy muloqotga xos ayrim murojaat shakllarining lingvokognitiv tahlili75

Shaxlo Baxodirova

"O'tgan kunlar" romanidagi lakunar birliklar88

Zarnigor Davronova

Badiiy matnda antroponim va unga yondosh tushunchalarning lingvistik xususiyatlari (Abdulla Qodiriy ijodi asosida)100

Zarifa O'rinova

Aforizmlar – intertekstual birlik sifatida113

Saodat Israilova, Gulnoza Rayhonova

Tezauruslardagi shaxs otlarining paradigmaticasi125

Mirzayeva Go'zal

Dunyo va turk tilshunosligidagi neyrolingvistik tadqiqotlar xususida132

Azizova Nilufar

"Devoni lug'otit turk"dagi "oziq-ovqat" semali leksik birliklarni semantik maydon asosida tadqiq etish142

Content

Linguistics

Shukhrat Khaitov

A philologik study of Babur's works6

Kamola Rixsiyeva

Semantic web-based analysis of qa= based linguistic units19

Iqbol Urazova

Analysis of phrases with the term "state" in the old uzbek language
(Based on the sources of the second half of the 14th century)28

Mamarajabova Iroda

Development of lexemes with the concept of time in the straotürkic
language42

Ma'suma Mo'minova

Expression of national – cultural signs in phrases with a water
component57

Israilova Saodat Turapovna, Jumanova Dilnoza

Discourse and its scientific interpretation67

Zakhro Abrueva

Linguistic-cognitive analysis of social communication forms of
address75

Shaxlo Baxodirova

Lacunar units in the novel "O'tgan kunlar"88

Zarnigor Davronova

Linguistic features of anthroponym and related concepts in literary text
(based on the works of Abdullah Qadiri)100

Zarifa O'rinova

Aphorisms – as an intertextual unit113

Saodat Israilova, Gulnoza Rayhonova

Paradigmatics of personal nouns in thesauruses125

Go'zal Mirzayeva

About neurolinguistic research in world and Turkish linguistics132

Nilufar Azizova

Studying the lexical units of "food" in the "Devoni lugotit turk" based on
the semantic field142

Dunyo va turk tilshunosligidagi neyrolingvistik tadqiqotlar xususida

Go'zal Mirzayeva¹

Annotatsiya

Maqolada dunyo, hususan turk tilshunosligida neyrolingvistika bilan bog'liq tadqiqotlar, olimlarning ilk qarashlaridan tortib hozirgi kunga qadar olib borilgan izlanishlar haqida ma'lumot berildi. Til va nutqdagi patologiyalarning aniqlanishiga doir ilk qarashlar va hozirgi kunda ularning yechimi yo'llari va bu sohadagi muammolar aytiladi.

Kalit so'zlar: *neyrolingvistika, til, nutq, miya, chap yarimshar va o'ng yarimshar, neyro lingvistik dasturlash (NLP).*

Fonetikaga doir adabiyotlarda til tovush jihatining tuzilishi ancha sodda yoritilgan. Biroq, aslida, u juda murakkab va inson miyasi idora etuvchi turli nutq mexanizmlari ishtirok etadigan jarayonlar natijasida hosil bo'ladi (Abduazizov 2010, 29.). Tovushlar bilan miyaning o'zaro aloqadorligi masalasi birinchi bo'lib Yevropa tilshunosligida o'rganila boshlandi (Lesser 1995, Eriks-Brophy 2004). Har bir inson ma'lum bir jamiyatda tug'iladi, o'sadi va o'sha tilda uning nutqi shakllanadi.

Shu kunga qadar miya faoliyatiga doir olib borilgan tadqiqotlar mukammal deb qaralardi, biroq XXI asrda yuzaga kelgan fan o'zgarishlari shuni ko'rsatdiki, aslida nutq o'zgarishlari aynan miya faoliyati bilan bog'liq. Aslida tibbiyotning sohasi bo'lgan neyronlarning tovush va tovush o'zgarishlari bilan bog'liqlik holati asoslanib tilshunoslikka olib kirildi va neyrolingvistika terminini oldi. Jahon tilshunosligida ushbu yo'nalishning yuzaga kelishi 150 yillarni o'z ichiga oladi va bu borada ko'plab ham amaliy hamda nazariy ishlar amalga oshirilgan. Maqolamizda turk tilshunosligidagi neyrolingvistik tadqiqotlar va ularning amalga oshirish jarayonlari haqida ma'lumot berishga harakat qilamiz.

Nutq orqali aloqa qilish qobiliyati, insonning o'z borlig'i bilan tashqi dunyoning xususiyatlarini idrok etish asosida yotgan lingvistik funktsiyalar va miyaning lokalizatsiyasi bilan bog'liq muammolar

¹ Mirzayeva Go'zal – ToshDO'TAU tayanch doktoranti.

E-pochta: guzelmirzayeva77@gmail.com

Iqtibos uchun: Mirzayeva G. Dunyo va turk tilshunosligidagi neyrolingvistik tadqiqotlar xususida. *O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2024-2: 132-141.

asrlar davomida fanning turli sohaları diqqat markazida bo'lib kelgan. Til va ongning moddiylik substrati miloddan avvalgi yillarda sharq va g'arb faylasuflarining uni topishga intilishi bilan boshlandi.

Miloddan so'ng Dekart boshchiligidagi mashhur olimlar "tilning miya organi"ni konariumdan miyaning korpus kollosumigacha turli qismlaridan topishga harakat qilishdi.

Miyaning aqliy funktsiyalari uning lokalizatsiyasi haqidagi eng keng qamrovli gipotezani birinchi bo'lib o'z davrining eng yirik anatomi bo'lgan Gallning tadqiqotlarida uchratish mumkin. U miyaning o'ng yarimsharidagi kulrang materiyaning ahamiyatini tushunib yetgan. Aqliy funktsiyalar va miyaning lokalizatsiya xaritasini yaratish ishi ham unga oid. Birinchi bo'lib miya faoliyatida ishtirok etuvchi miyaning eng muhim hududi sifatida aniqlangan korteks (miya yarim shari)ni ham Gall aniqlagan va tadqiqot olib borgan. Albatta, Gallning yondashuviga qarshi chiqqan va miyaning yagona organ ekanini bundan tashqari, miya hududlari funktsiyalari jihatidan ajralmasligini ta'kidlagan tadqiqotchilar ham bo'lgan. Ushbu qarashlar bugungi kunda ham qabul qilingan miya faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq "dinamik yondashuvlar" asosida yotadi. Miyani o'rganadigan fan sohalarining rivojlanishi bilan ba'zan "dinamik", ba'zan "mahalliy" yondashuvlar birinchi o'ringa chiqdi.

Yangi usullarning paydo bo'lishi natijasida miya shikastlanishi bo'lgan bemorlarda anatomik va fiziologik tadqiqotlarning rivojlanishi bilan kognitiv funktsiyalar miyaning lokalizatsiyasi bilan bog'liqligi aniqlandi. Insonning metakognitiv funktsiyalari haqidagi g'oyalarni rivojlantirish I. M. Sechenov, I. P. Pavlov, A. A. Uxtomskiy, V. M. Behterev, L. S. Vygodskiy, P. K. Anohin, A. N. Leontiyev, U. A. R. Luriya va boshqa ko'plab mashhur rus olimlarining ishlari tufayli yuzaga keldi.

Shu bilan birga, tilshunoslikdagi tizim va konkret vaqt-makon o'lchovli jarayon bo'lgan til va nutqni farqlash hamda nutqni eksperimental tekshirish zarurati birinchi o'ringa chiqqan boshladi. Bu yondashuvning asoschilari V. Gumbold, F. de Sossyur, A. A. Potebniya, I. A. Boduen de Kurtene, A. M. Peshkovskiy, N. S. Trubetskoy, V. O. Matezius va Praga Lingvistik maktabning boshqa vakillari L. V. Shcherba, R. Yakobsonlardir. Biroq, lingvistik va neyrofiziologik ma'lumotlarni bevosita bog'lash haqidagi qarashlar keyinchalik yuzaga keldi. 1860-yillarning ikkinchi yarmida fransuz P. Broka va avstriyalik K. Vernike tomonidan miyaning chap yarim sharida joylashgan va so'zlarning ishlab chiqarish va ularni aniqlash uchun javobgar sohalar aniqlandi. Bu topilma miyaning haqiqatan

ham kognitiv funktsiyalarga javobgar ekanini isbotlagani uchun butun dunyo ilm olamiga katta ta'sir ko'rsatdi. Biroz vaqt o'tgach, boshqa ma'lum funktsiyalar miyaning chap yarim shari tomonidan ta'minlanishi aniqlandi. Oradan uzoq vaqt o'tgach, chap va o'ng miya yarim sharlarining o'ziga xos xususiyatlari va funktsional assimetriyasi tadqiq qilingan va batafsil tavsiflangan.

Natijada, barcha semiotik harakatlar miyaning chap va o'ng yarim sharlari tomonidan taqsimlanishi ko'rsatildi (R. Sperri Nobel mukofoti). Shuning uchun, Homo Loquens, ikki yarim sharli miya tuzilishi tufayli, o'ng va chap yarimsharlarni ta'minlaydigan avtomatik va tasodifiy og'zaki nutq funktsiyasi ikkilik kodlash va tahlil qilish qobiliyatiga ega (Balonov, Deglin, 1976; Ivanov, 1983; Lotman, 1983; 1984; Chernigovskaya, Deglin, 1984, 1986; Deglin, Balonov, Dolinina, 1983; Balonov, Deglin, Chernigovskaya, 1985; Yakobson, 1985; Best, 1988; Chernigovskaya, 1994;1996; 1999; Brain assymetry, 1995). Darhaqiqat, L.Viganning o'ng va chap yarim sharlarning "mustaqilligi" haqidagi g'oyalari va har bir yarim sharga xos bo'lgan ong turi bilan bog'liq g'oyalarni ilgari surgan kitobi 1844 yilda yozilgan.

Biroq nafaqat bu muhim tadqiqot, balki mashhur britaniyalik nevrologlar S.Uilks va X. Jeksonlar tomonidan 1868 yilda olib borilgan tadqiqot rus M. M. Minasseina va keyinchalik M. I. Astvatsaturovning 4 asari funktsiyalari miyaning lokalizatsiyasi haqidagi g'oyalarning rivojlanishiga ta'sir qilmadi Bu esa hayratlanarli. Shu bilan birga, Brocka va Vernike tomonidan qilingan kashfiyotlar ko'p yillar davomida ilm-fan olamini egalladi (Luriya 1979; Ahutina 2002).

Nutq patologiyasi haqidagi ma'ruzasida Jekson lingvistik funktsiyaning ikki turi mavjud ekanini ta'kidladi: "intellektual til" va hissiyotlarni ifodalovchi "hissiy til". Jeksonning so'zlariga ko'ra, "hissiy til" stereotiplar, argolar, vulgarizmlar yoki oddiy konstruktsiyalar, shuningdek, yuz ifodalari, imo-ishoralar, jestlarni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuvda, bugungi kunda miyaning o'nlab tajribalar bilan tasdiqlangan chap va o'ng yarim sharlarning xususiyatlarini aniq ko'rish mumkin. Jekson so'zning chiziqli tuzilishini tavsiflaydi; fonologik, leksik, grammatik va semantik jihatdan tartiblanishini nazarda tutib «nutq» so'zlarning bir joyga to'planishi emas, - deydi. Kasallik bu qoidalarining hammasi yoki bir qismi buzilishiga olib kelishi mumkin, buzilishlarning "ro'yxati" o'ng yoki chap yarim sharning shikastlanganligiga qarab farqlanadi. Bu aniqlash, tegishli qoidalar miya tomonidan belgilanishini ko'rsatadi. R.Yakobson keyinchalik bu aloqadorlikni ifodalash orqali afaziyalar tasnifining

asoslarini tushuntiradi (Yakobson, 1985).

Mumkin bo'lgan qarama-qarshilikni oldindan ko'ra olgan Jekson, "so'zni buzadigan miya shikastlanishining lokalizatsiyasi bilan, lingvistik funktsiyaning lokalizatsiyasi ikkita alohida hodisadir", deb ogohlantiradi.

Avvalo turk tilshunosligida neyrolingvistika termini haqida ma'lumot beradigan bo'lsak, "Dil ve beyin" (til va miya) hamda nörolinguistik atamaları bilan yuritilishining guvohi bo'ldik. O'zbek tilshunosligida terminlar asosan xalqaro terminlar asosida yuritilsa, turk tilshunosligida terminlarga yondashuv boshqacharoq, ya'ni xalqaro terminlarni ham turk tiliga moslashtirish holati kuzatiladi va o'rganish jarayonida neyrolingvistikani yuqorida keltirgan terminlarimizdan boshqa termin bilan berilganini uchratmadik. Turk tilshunosligida matn orqali suhbatdoshning kimligini aniqlash fonetik jihatdan formulalar asosida tahlil qilingan (Ibuslu@edu.tr.). Ko'plab eksperiment tadqiqotlarida sog'lom nutq egalarining nutqiy faoliyatiga doir quyidagi savollarga javob izlashga harakat qilingan:

- tovushni ajratish va talaffuz qilish
- "yozuv-tovush" birlashuvi
- fonema talaffuzida "tanlov-birlashtiruv"
- suhbat va nutq organlari orasidagi munosabat
- ohang va ma'no aloqasi
- his qilish, nutq orqali izohlab berish
- tovushlarning miya nuqtalari bilan bo'lgan munosabati.

Til va nutqdagi nuqsonlar nutq jarayoni, ohang, urg'u, talaffuzda qo'shimcha qo'shilgandagi o'zgarishlar paronimlar tufayli ma'no o'zgarishidagi nuqsonlarni o'z ichiga oladi. Til va nutqdagi nuqsonlar bir qancha shakllarda namoyon bo'ladi. Til va nutqdagi nuqsonlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Nutqdagi nuqsonlar:

2. So'zlash – artikulyatsion nuqsonlar (tovush tushirish, tovush orttirish, tovush almashtirish)

A. Talaffuzdagi nuqsonlar;

B. Nutq jarayonidagi nuqsonlar (shoshilib talaffuz qilish, duduqlanish).

3. Tildagi nuqson: kech chiqqan til, so'z boyligining kamligi;

Til va nutqdagi boshqa nuqsonlar: miya falaji bilan bog'liq til va nutq nuqsonlari; eshitish bilan bog'liq nuqsonlar; zehni pastligi bilan bog'liq nuqsonlar; ruhiyat (afaziya) bilan bog'liq nuqsonlar (Erer 1994).

Insonning asab tizimida biror hastalik bo'lsa, bu uning nutqida

namoyon bo'ladi. Inson nutqidagi nuqsonlar to'g'ridan-to'g'ri uning zehni bilan bog'liq. Nutq a'zolaridagi kamchilik uning ravon nutqda so'zlashishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, eshitish jarayoni muammoli insonlar nutqi ravon bo'lmaydi. Nutqi ravon bo'lmagan insonlarning nutqida turli tovush hodisalari kuzatiladi. Masalan, tovush tushishi hodisasi duruyo-duruyor, gödüm-gördüm, araba < arba, havlu < avlu, saat < sat.

Tovushni o'zgartirib talaffuz qilish ko'p kuzatiladigan nutqiy nuqsonlardandir. So'zda talaffuz qilinishi qiyin bo'lgan tovush talaffuz osonroq boshqa tovush bilan almashtirilib talaffuz qilinadi: bes-beş, yüsük-yüzük, kaymon-kamyon çizgi < çisgi, para < paya, kitap < kipat.

Tovush buzilishi holatida tovush nutq jarayonida yangi bir tovush bilan almashtirilib talaffuz qilinadi: yax-yaz, kaxgöz-karagöz, gelir < gelih < geliy < gelüm. Inson tovushi talaffuzning uch hususiyati bor:

1. Tovush pardasi;
2. Tovush ritmi;
3. Ohang

bu uch hususiyatdagi nuqson suhbatdosh va so'zlovchini estetik jihatdan bezovta qiladi va suhbatga to'siq bo'ladi. Nutqdagi nuqsonlar, asosan, maktab yoshidagi bolalarda kuzatiladi. Buning asosiy sababi, bu yoshdagi bolalarning o'yin paytida baland ovoz bilan gapirishi va baqirishidir. Miya falajiga chalingan insonlarning nutqi ravon bo'lishi kam kuzatiladigan hol. Bunday insonlarning miya faoliyati me'yorida ishlasa ham, mushaklarning yetarlicha ishlamasligi tufayli tovushlar talaffuzi qiyin kechadi. Miya falajiga uchragan insonlarning barchasida ham nutq nuqsonlari bir hil darajada bo'lmasligi ham mumkin. Bunday insonlarning nutqidagi nuqson miyaning zararlanish darajasiga ko'ra va nutq a'zolarining shikastlanish holatiga ko'ra yuzaga keladi.

Talaffuz va nutqdagi kamchiliklar bir qancha xususiyatlarga ega:

a. Nutq organlari faoliyatidagi nuqsonlar (lab va tomoqda shish mavjudligi, eshitish organidagi muammo, og'iz bo'shlig'i va bo'g'izdagi nuqsonlar, tishlarning joylashuvidagi nuqsonlar);

b. Markaziy nerv sistemasi muammolari (miya falaji, hotira sustligi, so'zni buzib talaffuz qilish);

c. Nevrologik muammolar (afaziya kasalligi vb.)

d. Sezgi a'zolaridagi nuqsonlar (eshitish va ko'rish qobiliyatining pastligi);

e. Atrofdagi turli salbiy holatlar ta'siri;

f. Travmalar;

g. Aqldagi nuqsonlar (ruhiy hastalik va Daun sendromi);

h. Axloqiy, ijtimoiy – psixologik muammolar (jiddiy ijtimoiy muammosi bo'lgan ota-onaga nisbatan bola o'z-o'zini begona his etishi va ularning e'tiborini tortish uchun turli usullardan foydalanish, autizm vb.)

i. Bilingvizm.

Yuqorida ko'rilganidek, nutqning talaffuzidagi nuqsonlarga, asosan, neyronlar va markaziy nerv sistemasi o'zining ta'sirini ko'rsatadi.

Turk professori Barish Korkmaz neyrolingvistika sohasida katta ishni amalga oshirgan olim hisoblanadi. Uning “Dil ve Beyin (Çocuklarda Dil ve Konuşma Bozuklukları)” deb nomlangan kitobida ona tili va nutqning rivojlanishi, bolalardagi eshitish bilan bog'liq nuqsonlar va tilning rivojlanishi, nutq uning xususiyati va buzilishlari, rivojlangan til nuqsonlari, orttirilgan nevrologik hastalarga hos nutq va til muammolari, afaziya sindromlari, til va nutq terapiyasi haqida batafsil ma'lumot beribgina qolmay, ushbu muammoga duch kelgan hastalar bilan ishlash va ularni davolash usullarini o'rgatadi. Olimning ilmiy ishining ahamiyatli jihati shundaki, u bolaning 18 oyligidan boshlab uning nutqida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni misollar orqali ko'rsatib beradi va uning yechim yo'llarini yozadi. Barish Korkmaz ishining so'nggida Turkiyadagi neyrolingvistika sohasi haqida shunday deydi: “Turk tilshunosligining bir yo'nalishi bo'lgan psiholingvistika yo'nalishi vakillari, tilshunoslar hamda nevrologlar va logopedlar birlashgan holda nutqida nuqsoni bo'lgan insonlar bilan kompleks ishlashlari kerak. Turk tilshunosligida neyrolingvistik tadqiqotlar afsuski u qadar rivojlangan deb aytolmaymiz. Xususan tibbiyot va gumanitar fanlar orasida aloqa yo'qligi buning katta sabablaridan, deb ayta olamiz. Tilida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan aynan turk tilida ishlanadigan testlar hali qoniqarli saviyada deb bo'lmaydi” (Korkmaz 2005, 284-285.). Olimning bu asari 2005 yilda yozilgan bo'lib, u vaqtlarda hali Turkiyada bu soha u qadar rivoj topmagan edi. Lekin B.Korkmazning ushbu asari neyrolingvistikaning juda katta muammo va yechimini qamrab olgan ilmiy asar hisoblanadi.

O'tgan vaqt mobaynida esa neyrolingvistika sohasida yana ko'plab tadqiqotlar yuzaga keldi. Bulardan ozarbayjonlik professor G.Sa'diyevaning ishlarini e'tirofga sazovor ishlardan deyish mumkin. Olima ozarbayjonlik bo'lishiga qaramay, tadqiqotlarini turk hastalari bilan olib borgan va ular bilan bog'liq muammolarni o'rgangan

hamda turk neyrolingvistikasining rivojlanishiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan. Olima o'zining tadqiqotlarida afaziya va uning turlari haqida ma'lumot beradi va kuzatish olib borgan bemorlarining talaffuzidan olingan misollarni tilshunoslikning yo'nalishlari bo'yicha tahlil qiladi. Masalan, bevosita bizning mavzuimizga aloqador bo'lgan tovush o'zgarishlari bilan bog'liq afaziya turlariga turk bemorlari nutqidan olingan ushbu so'zlarni keltiradi: , sarı→salı, arı→alı, gül→gür, kent→tent, geldi→deldi, hekim→ekim, kuş→uş, kız→ız, hamam→amam (Sadiyeva 2004, 222-223.). Ko'rilganidek, keltirilgan misollarda tovush o'zgarishlarining bir qancha: tovush tushishi, tovush almashinishi kabi turlarini ko'rishimiz mumkin.

G.Ergenning ilmiy tadqiqot ishida esa afaziya, uning turlari, afaziyaga chalingan bemorlarni aniqlash testlari va ularning turlari haqida to'liq ma'lumot berilgan. Tadqiqotchi afaziyaga chalingan bemorlarni va ularning darajalarini aniqlash uchun yettita test turini taqdim etadi va sinovdan o'tkazadi hamda ushbu sinovning ayollar va erkaklar o'rtasidagi statistikasini taqdim etadi. Shuningdek, ish so'nggida taqdim qilgan qaysi testlari sinov jarayonida yaxshi natija berganini o'z xulosasida bayon qiladi (Ergen 2019).

Uludag' universiteti tadqiqotchisi bo'lgan M.V.Tuz o'zining maqolasida Neyro Lingvistik Dasturlash haqida ma'lumot beradi. Ushbu daturlash tarihiga to'htalar ekan tadqiqotchi shunday deydi: "NLP (Neyro Lingvistik Dasturlash)ga tilshunos olim Jon Grinder va matematik Richard Brendlar tomonidan Kaliforniya universitetida 1970-yillarning boshlarida asos solingan. Bu ikki tadqiqotchi tilning shaxslarga va uning xatti-harakatlariga ta'sirini o'rganib chiqdi hamda tilshunoslik va psixologiya sohasidagi tajribalaridan foydalanib, Neyro lingvistik dasturlash deb ataydigan ilg'or aloqa modelini ilg'or kompyuter texnologiyalari bilan birlashtirdi. NLP - Bandler va Grinder tomonidan kiritilgan tushuncha bo'lib, ular ko'plab inson xatti-harakatlari samaradorlikka emas, balki muammolarga qaratilganligini ko'rgan va bu ikki tadqiqotchi odamlarni nima faolroq qilishini aniqlash bo'yicha tadqiqot olib borishgan (Tuz 2002, 138). Ya'ni tilshunos aytayotgan bu tadqiqot tilida nuqsoni bor kishilarning nuqsonini aniqlash emas, balki uni bartaraf etishi yo'llarini izlaydi va shunga yordam beradi. Bu ishdagi termin NLPni M.V.Tuz shunday ochiqlaydi:

"Neyro:Bumiyayokiko'proqnevrologiyasifatidaishlatiladigan yoki butun tanani o'rab turgan asab tizimidir. Nevrologik jarayon bo'lgan ko'rish, eshitish, his qilish, ta'm va hidlash sezgi organlarimiz bilan tashqi dunyoni idrok etishda hamda ichki sezgimiz - intuitsiya

bilan bog'liqdir.

Lingvistika: Til va uning tuzilishi. Til bizning fikrlarimizni boshqalarning fikriga qanday ta'sir qilishini izohlaydi. NLP yaxshiroq fikrlashi va yanada muvaffaqiyatli xulq-atvorni rivojlantirish uchun kundalik tilni qo'llashimizga yordam beradi. Dasturlash: fikrlarimiz va tanamizning odatiy faoliyati. Bu kompyuter muayyan ishlarni bajarish uchun dasturlashtirilganidek, o'z fikrlarimiz va xatti-harakatlarimizni qanday dasturlashimiz mumkinligini ko'rsatadi" (Tuz 2002, 140). Mazkur ishning boshqa neyrolingvistik tadqiqotlardan farqi shundaki, unda kishilarning nutqi bilan bog'liq nuqsonlarni bartaraf etish choralari qo'llaniladi. Ya'ni nutqida nuqsoni bor kishilar NLP yordamida ushbu nuqsonning bartaraf etilishiga erishadi. Ushbu tadqiqot ham bir necha sohalarini o'zida birlashtirishi va nutqida nuqsoni borlarni kompleks davolash choralarni qo'llashi bilan ahamiyatlidir.

O.Tanridag'ning "Neyrologiya va nutq-til buzilishlari: umumiy tushunchalar va ilovalar" (Nörobilim ve Dil-Konuşma Bozuklukları: Ortak Kavramlar ve Uygulamaları) nomli darslik kitobida neyrologiya va nutq terapiyasi sohalarining umumiy tushunchalari va amaliyotlarini tanishtirish va bu sohada mavjud bo'lgan bo'shliqni ko'p qirrali bilimlarni uzatish orqali to'ldirishga qaratish, hamda nevrologiya tarixining ilk kunlaridan boshlab paydo bo'lgan va bu munosabatlarni boshidanoq bilmagan holda nevrologiya ta'limini to'liqsiz qilib qo'ygan til va nutq funktsiyalari haqida batafsil ma'lumot beriladi. Olim o'zining darslik-kitobida nevrologiya sohasi bilan bog'liq nutq buzilishlarining tilshunoslarsiz o'rganib bo'linmasligi va bu bir necha soha vakillarining birlashuvisiz amalga oshmasligini ta'kidlaydi. Kitobning birinchi qismida nevrologiyaga oid til va nutq terapiyasi tushunchalari va amaliyotlarining ilmiy asosini tashkil etuvchi asosiy miya ma'lumotlari muhokama qilinadi. Kitobning ikkinchi qismi til va logopediya sohasiga oid tushuncha va amaliyotlarga bag'ishlangan. Ushbu bo'limlar nutq terapiyasida nevrologik yondashuvning ahamiyati, orttirilgan til, o'qish va yozish buzilishlari, ravonlik buzilishi, disleksiya, vosita nutqining buzilishi, nutq tovushining buzilishi, til rivojlanishining buzilishi va ovozning buzilishini o'z ichiga oladi (Tanridag' 2023). So'nggi yillarda turk neyrolingvistika sohasida yaratilgan salmoqli darslik deb atash mumkin bo'lgan ushbu qo'llanma nevrologiya, logopediya va lingvistikani hamkorlikda ishlashga chorlaydi va shundagina nutqdagi muammolarga yechim topish mumkinligini aytadi. Zero, bu uch soha birlashmay turib nutqdagi buzilishlarning bartaraf

etilishining imkoni yo'q.

Yuqorida neyrolingvistika sohasining dunyo, jumladan turk tilshunosligida o'rganilishi haqida ma'lumot berar ekanmiz, bu sohaning eng muammoli tarafi bir nechta sohaning birlashgan holda ishlamayotgani shuning natijasida ko'plab muammolar bartaraf bo'lmayotganligiga guvoh bo'ldik.

Adabiyotlar

- Abduazizov, A. (2010). O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent.
- Lesser, R., Algar, L., (1995). Towards combining the cognitive neuropsychological and pragmatic in aphasia therapy. Neuropsychological Rehabilitation, 5 (1/2).
- Korkmaz, B. (2005). Dil ve Beyin. Çocuklarda Dil ve Konuşma Bozuklukları. –İstanbul.
- Sadiyeva, G. (2004). Beyin Hasarı Geçiren Türk Hastaların Dil Bozukluklarının Dilbilim Açısından İncelenmesi. bilig, Güz / , sayı 31.
- Ergen, G. (2019). Afazi değerlendirme testi'nin farklı dil testleriyle korelasyonunun incelenmesi ve token testi'nin standardizasyonu, geçerlik ve güvenirlik çalışması. Yüksek lisans tezi. –İstanbul.
- Tuz, M.V. (2002). U.Ü. Kişisel mükemmeliği yakalamada nöro linguistik programlama (nlp) tekniği// Fen-edebiyat fakültesi sosyal bilimler dergisi Yıl: 3, Sayı: 3, S. 138.
- Tanrıdağ, O. (2023). Nörobilim ve Dil-Konuşma Bozuklukları: Ortak Kavramlar ve Uygulamaları. – İstanbul: "Nobel Kitabevi".

About neurolinguistic research in world and Turkish linguistics

Mirzayeva Go'zal¹

Annotation

